**Annotatsiya:** Tashkilotlarda belgilangan maqsadlarga erishish uchun asosiy vosita – bu inson resurslaridir. Ularning malakasi, mahorati, bilim-ko'nikmalari, ya'ni inson kapitali tashkilot oldiga qo'ygan marralarga erishishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu sababli ushbu maqolamizda inson kapitali, uning korxona va tashkilotlardagi roliga bag'ishlangan xorij va mahalliy adabiyotlar tahlilini yoritamiz.

**Kalit so'zlar:** inson kapitali, xodimlarni o'qitish va rivojlantirish, o'qitish dasturlari

**Abstract:** Human resources are the main tool for achieving the goals set in organizations. Their qualifications, skills, knowledge and skills, that is, human capital, play a decisive role in achieving the goals set for the organization. Therefore, in this article, we cover the analysis of foreign and domestic literature on human capital, its role in enterprises and organizations.

**Key words:** human capital, training and development of employees, training programs

**Аннотация:** Человеческие ресурсы являются основным инструментом достижения целей, поставленных перед организацией. Их квалификация, умения, знания и навыки, то есть человеческий капитал, играют решающую роль в достижении целей, поставленных перед организацией. Поэтому в данной статье мы освещаем анализ зарубежной и отечественной литературы о человеческом капитале, его роли на предприятиях и организациях.

**Ключевые слова:** человеческий капитал, обучение и развитие сотрудников, программы обучения.

## KIRISH

Har qanday iqtisodiyot yoki tashkilotdagi eng muhim resurs inson kapitali, ya'ni ishchi kuchining umumiy bilimi, xususiyatlari, ko'nikmalari, tajribasi va salomatligidir. Inson kapitalini rivojlantirish erta bolalikdan boshlanib, ta'lim olish jarayoni orqali davom etsa-da, bizning tadqiqotimiz mehnat hayotini qamrab oluvchi keyingi bosqichga, ya'ni ish joyida inson kapitalini rivojlantirish jarayoniga qaratilgan.

Asrlar davomida moliyaviy kapital an'anaviy ravishda korxona va tashkilotlarni tashkil etish va boshqarishda ustunlik qilib keldi. Ammo innovatsiyalar va intellektual kapital tashkilotlarning muvaffaqiyati uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan zamonaviy dunyoda inson kapitali qiymatiga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda. AQShda olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar (3100 tadan ko'proq ish joylari tahlil qilib chiqilgan) xodimlarning ta'lim darajasi 10,0 % ga ortishi natijasida jamlanma mehnat unumdorligi 8,6 % ga o'sishini ko'rsatgan. Taqqoslash uchun asosiy fondlar shu darajaga ko'paytirilganda mehnat unumdorligi atigi 3,4 % ga ortishi aniqlanganligini keltirish mumkin. Boshqacha aytganda, inson kapitaliga investitsiyalardan olinadigan foyda texnikaga kapital qo'yilmalardan olinadigan foydadan uch barobar yuqoridir <sup>[1]</sup>.

Bilim va mijozlar bilan muloqot tobora ortib borayotgan dunyoda bilim, texnik ko'nikmalar, ijodkorlik va tashkilot tajribasini ko'rsatadigan inson kapitali katta ahamiyatga ega bo'lib, shuning uchun inson resurslari qimmat aktivlar emas, balki ishlab chiqarish aktivlari sifatida qaralmoqda.

Katta va kichik tashkilotni boshqarish uchun, eng avvalo, ularni malakali kadrlar bilan ta'minlash kerak. Rasmiy ta'lim tizimi ma'lum bir tashkilotdagi lavozim uchun aniq ish ko'nikmalarini yetarli darajada o'rgata olmaydi. Samarali ishlash uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar, bilim, qobiliyat va malakalarga ega bo'lgan xodimlar nisbatan kam topiladi. Natijada, ko'pchilik tashkilotlar o'sishiga salmoqli hissa qo'shish maqsadida zamonaviy bilim va ko'nikmalarni egallashlari uchun xodimlarni keng qamrovli o'qitishga ehtiyoj sezadi.

O'qitish va rivojlantirishning asosiy maqsadi xodimlarning malakasini oshirishdan iborat bo'lib, bu orqali tashkilot o'z inson resurslarining samaradorligi va unumdorligini maksimal darajada oshirishi mumkin. M. Armstrong o'z kitobida aniq ta'kidlaganidek, tashkilotlar o'z xodimlarining "yuragi va ongini" qozonish orqali ularni tashkilot bilan birdek his qilishlari, tashkilot manfaatlari uchun ko'proq harakat qilishlari va tashkilotda qolishlari uchun o'qitish va rivojlanishdan foyda olishlari mumkin <sup>[2]</sup>.



## ADABIYOTLAR TAHLILI

Inson kapitali zamonaviy korxona va tashkilotlar muvaffaqiyati uchun ajralmas bo'lgan qimmatli nomoddiy aktivni ifodalaydi. Adabiyotlarda inson kapitalining ko'plab ta'riflarni topish mumkin. Inson kapitaliga asosiy qarashlaridan biri M. Armstrong tomonidan taqdim etilgan ko'rinish bo'lib, u inson kapitalini bilim va ko'nikmalar deb ta'riflagan [2]. Ushbu ikkita asosiy komponent yaratiladi, saqlanadi va eng muhimi, xodimlar o'zlarining ish vazifalarini bajarishda ulardan foydalanadilar.

Amerikalik olimlar S. Burund va S. Tumoloning fikriga ko'ra, inson kapitali – bu inson resurslarining samaradorligini oshirish maqsadida ularga investitsiyalar kiritishdir. Aslida, bu investitsiya xarajatlari kelajakda foydalanish uchun taqdim etiladi. Shuning uchun o'rganuvchi tipidagi tashkilotlar individual shaxslarga investitsiyalar kiritishni afzal ko'radilar, chunki odamlar turli fazilatlariga ega bo'lgan qimmatli inson kapitalidir [3].

Inson kapitali tushunchasi amerikalik professor R. Stevens tomonidan yanada aniq talqin qilingan. Ushbu muallifning fikriga ko'ra, inson kapitali tushunchasini ishchi kuchining strategik va jamoaviy qiymati sifatida tushunish mumkin. R. Stevens, shuningdek, inson kapitali tashkilotda ishlaydigan xodim emas, balki ushbu xodim tashkilotga olib keladigan va tashkilotga muvaffaqiyatga erishishida yordam beradigan narsa ekanligini ta'kidlaydi [4].

Akademik Q. X. Abdurahmonov o'z tadqiqotlari natijasida, inson kapitalini ikki xil ma'noda tushuntirgan. Inson kapitali tor ma'noda – insonning intellekti, sog'lig'i, bilimi, sifatli va unumli mehnati hamda uning turmush sifatidir. Keng ma'noda inson kapitali – bu iqtisodiy rivojlanishning intensiv ishlab chiqarish omili, jamiyat va oilani rivojlantirish, mehnat resurslarining bilimli qismi, intellektual va boshqaruv mehnati, yashash va ish joyi muhitidir. Ular inson kapitalini rivojlantirishning ishlab chiqarish omili sifatida samarali va oqilona amal qilishini ta'minlashi kerak [5].

D. D. Rustamovaga ko'ra, inson kapitali – bu inson ega bo'lgan bilim, ko'nikma va qobiliyatlar yig'indisi bilan birga malaka va qobiliyatlar zahirasi hisoblanadi. Unga investitsiyalar esa mehnat unumdorligini oshirish uchun qo'llanilgan ixtiyoriy chora, yo'l va qarorlar yig'indisidir [6].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada tadqiqot maqsadlariga erishish uchun Literature meta-analyssis ya'ni, ikkilamchi ma'lumotlarni tahlil qilish metodologiyasidan foydalanildi. Bunda keng qamrovli adabiyotlarni ko'rib chiqish, kutubxonalarni qidirish, bir qator turli veb-saytlar, onlayn jurnal nashrlari, konferensiya materiallari, tezislari, turli institutsional hisobotlar va nashrlarni ko'rib chiqish va tahlil qilish usullari qo'llanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Mavjud ilmiy adabiyotlarni baholash orqali inson kapitali tushunchasi turli yo'llar bilan talqin qilinganligini ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birgalikda, ushbu ta'riflarda ba'zi takrorlanadigan elementlar ham aniqlandi. D. Kvon, G. Bekker, M. Bildirichi, S. Sunal, E. Aykach Alp, & M. Orchan, T. Han, C. Lin, & M. Chen ilmiy adabiyotlarda tez-tez aniqlangan asosiy inson kapitali elementlarni ajratib ko'rsatishgan va ular quyidagi chizmada aks ettirilgan [7–10].



1-rasm: Inson kapitali elementlari

Manba: muallif tomonidan umumlashtirilgan.





Inson kapitali har bir shaxsning o'zida bo'ladi, lekin bu atama kompaniya yoki iqtisodiyot miqyosida ham ma'noga ega. Inson kapitali nazariyotchilaridan G. Bekker inson kapitali tushunchasini birinchi bo'lib mikrodarajada qo'llay boshladi. U korxonadagi inson kapitalini inson ko'nikmalari, bilim va mahoratining jamlanmasi, deb belgilagan. Bunda u xodimlarni maxsus o'qitish, ularda maxsus bilim va ko'nikmalar hosil qilishga alohida ahamiyat bergan. G. Bekkerning hisoblashicha, xodimlarning maxsus tayyorgarligi firmaning raqobat ustuvorligini shakllantiradi. Bu bozorlarda mahsulotlarning ma'lum va mashhur bo'lishi, pirovard natijada, firmaning nufuzi, nou-xausi va savdo belgisida o'z ifodasini topadi. Xodimlarni maxsus tayyorlashdan, eng avvalo, firma va kompaniyalarning o'zlari manfaatdor, shuning uchun ular buni o'zlari moliyalashtiradilar.

Tashkilotlarning inson kapitaliga bo'lgan e'tibori tashkilotlarning bozordagi qiymati moddiy aktivlarga qaraganda ko'proq nomoddiy aktivlarga, ayniqsa inson kapitaliga bog'liq degan qarashga asoslanadi. Tashkilotga eng yaxshi xodimlarni ishga yollash va saqlab qolish ushbu bitimning bir qismidir. Tashkilotlar tashkiliy ta'lim darajasini rivojlantirishi, xodimlarning ko'nikma va qobiliyatlarini rag'batlantirish orqali oshirishi va bilimlarni yaratish, bo'lishish, qo'llash va o'rganish odat tusiga kiradigan muhitni ta'minlashi kerak.

Odamlarning tashkilot ichidagi qimmatli manbalar ekanligi yangilik emas. L. Nerdrum va T. Erikson ma'lumotlariga ko'ra, XVII asrning boshlarida mashhur iqtisodchi Uilyam Petti sug'urta xodimlari orqali ishchilarning qiymatini hisoblab chiqqan edi <sup>[11]</sup>. Keyingi asrlarda Adam Smit ishchilarning bilim va mahoratining qiymati va ularning mahsulot jarayoniga va kompaniya samaradorligiga ta'siri haqida yozgan <sup>[12]</sup>. Bundan tashqari, Adam Smitning ta'kidlashicha, ta'lim insonga qilinadigan investitsiyaning bir turi bo'lib, malakali va bilimli ishchilarni qo'llab-quvvatlaydi. Xodimlarning imkoniyatlarini kengaytirish va ularga qaror qabul qilish imkoniyatini berish ularning motivatsiyasini oshiradi va tashkiliy o'zgarishlarga qarshiliklarini kamaytiradi.

Inson kapitalini rivojlantirish sharoitida turli tadqiqotchilar ta'limning muhimligini ta'kidlaydilar. J. Benhabib va M. Spiegellarga ko'ra o'qitilgan xodimlar texnologik o'zgarishlarga yaxshiroq moslashishadi va ularni ishlab chiqish va amalga oshirishga qodir, deb ishoniladi <sup>[13]</sup>. Shu bilan birga, ta'lim inson kapitalining uchta muhim elementlaridan biri bo'lib, u ham bilimlar iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy omili sifatida belgilanadi.

Shu sababdan, xodimlarni o'qitish va rivojlantirish birgalikda, har qanday tashkilotda xodimlarni boshqarish bo'limining muhim qismi – yuragi hisoblanadi. Bizningcha, xodimlarni o'qitish – bu odamlarni o'z ishlarini muvaffaqiyatli bajarishlari uchun imkon qadar yuqori malakaga ega bo'lishlari hamda katta qiyinchilik va mas'uliyatli lavozimlarda ishlashlari uchun yetarli malakali bo'lishlari maqsadida o'qitish, xabardor qilish yoki o'rgatish jarayonidir. Tashkilotdagi xodimlar o'z faoliyatini samarali bajarishlari uchun turli sohalarida o'qitiladi.

O'qitish – bu ta'lim, amaliyot va tajriba orqali yangi narsalarni o'rganish usuli. Rivojlantirish esa xodimlarni kelajakda kutilayotgan ish o'rinlari talablari va xususiyatlari to'g'risida ko'proq xabardorlik va tayyorlikka ega bo'lishiga olib keladi va shuning uchun ularni samarali tayyorlaydi, bu ularni tashkilot maqsadlariga erishishga hissa qo'shish uchun yetarlicha yetuk bo'lish uchun rivojlantiradi.

Professor G. Q. Abduraxmonova va I. Danaboyev personalni rivojlantirishga quyidagicha ta'rif beradi: Personalni rivojlantirish – personalning yangi bilimlarga ehtiyojlarini aniqlash va bu ehtiyojlarni qondirib borish, bosh-qaruv uslublarini muttasil takomillashtirib borish, xodimlarga ularning faolligini oshirishda har taraflama yordam berish <sup>[14]</sup>.

Ko'pgina tadqiqotchilar (masalan, U. Anyanvu <sup>[15]</sup>) o'qitish tashkilotning maqsad va vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda asosiy va samarali vosita ekanligini va natijada yuqori mahsulodkorlikka erishilishini ko'rsatgan. O'qitish va xodimlarni rivojlantirish samarali va rag'batlantiruvchi jamoani shakllantiradi va shu bilan xodimlarning ishonchi va o'zini o'zi qadrlashini oshiradi. Shunday qilib, xodimlar yangi texnologiyalar va boshqa tashkiliy o'zgarishlarga moslashish uchun bilim va ko'nikmalarni rivojlantiradilar. Xodimlarni o'qitish va rivojlantirish, shuningdek, tashkilotni tark etgan xodimlarning o'rnini bosish imkoniyatini yaratadi.

Umuman olganda xodimlarni o'qitish va rivojlantirish xodimlar va tashkilot uchun bir qator samaralar olib keladi. Xususan, tashkilot uchun foydali tomonlari:

- Yangi xodimlarni ishga moslashish jarayonini tezlashtirish: yaqinda yollangan xodimlarning ijtimoiy integratsiyalashuvi va rolini samarali bajarishi uchun vaqtni qisqartirish uchun "yo'naltirish dasturlari".
- Xodimlarni yanada murakkab vazifalarni bajarishga tayyorlash: tashkilotda xodimlarning o'sishini qo'llab-quvvatlaydigan dasturlar, masalan, yangi lavozim uchun zarur bo'lgan murakkab texnik bilimlarni yoki boshqaruv ko'nikmalarini o'rganish orqali.
- Samaradorlik va unumdorlikning umumiy darajasini oshirish: xodimlarning hozirgi rolida ish faoliyatini yaxshilashga qaratilgan va yangi texnologiyalar va ish usullarini joriy etishni o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan dasturlar.
- Qonunchilik va axloqiy me'yorlarga javob berish: Ta'lim xodimlarning qonuniy chegaralar ichida ishlashini va ularning xatti-harakatlari rahbariyat va manfaatdor tomonlar tomonidan kutilgan axloqiy standartlarga javob berishini ta'minlash uchun mo'ljallangan.
- Xodimlarni yangilab turish: Biznes haqiqati o'zgarib borayotganligi sababli, tashkilotlar xodimlarni biznes va ish joyidagi o'zgarishlardan xabardor qilish uchun axborot sessiyalarini o'tkazadilar.





- Salomatlik va xavfsizlikni ta'minlash: xodimlarning sog'lig'ini saqlashga va ish joyidagi shikastlanishlarning oldini olishga o'rgatish orqali ularning farovonligiga qaratilgan dasturlar.
- Munosabatdagi o'zgarishlar: vazifani qanday bajarishga qaratilgan dasturlardan farqli o'laroq, xodimlarning tashkilot tashabbuslari va boshqa xodimlar yoki manfaatdor tomonlarga nisbatan his-tuyg'ulari va e'tiqodlari bilan bog'liq dasturlar.
- Qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini yaxshilash: Ishbilarmonlik haqiqati tobora murakkablashganda, tashkilotlar o'z xodimlariga vaziyatni qanday tahlil qilishni, mumkin bo'lgan tashabbuslarni tanlashni va qiyin, kutilmagan muammolarni hal qilishni bilishlarini ta'minlashi kerak.

Xodimlarni o'qitish va rivojlantirishning afzalliklari yaxshi hujjatlashtirilgan va bunday investitsiyalar tashkilotlarning yakuniy natijalariga, raqobatbardoshligiga, xodimlarning ish natijalariga, ishdan qoniqishiga va majburiyatlariga muhim ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Misol uchun, Inson resurslarini boshqarish jamiyati tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, ishchilarning 40% dan ortig'i o'z tashkilotlarining xodimlarni rivojlantirishga sodiqligi ularning ishdan qoniqish uchun muhim deb hisoblashadi <sup>[16]</sup>.

Hozirgi kunga kelib rahbarlar o'qitish va rivojlantirish dasturlarining ahamiyatini nihoyat to'g'ri baholashmoqda. Rahbarlar va yuqori darajadagi menejerlar buni xarajat sifatida ko'rish o'rniga, endilikda inson kapitaliga sarmoya kiritishni biznes strategiyasi sifatida o'qitish va rivojlantirish orqali ko'rishmoqda. 2016-yilgi Britaniya sanoat konfederatsiyasi (Confederation of British Industry) va Pearson ta'lim tashkiloti hamkorligida Buyuk Britaniyada o'tkazilgan 9-Ta'lim va ko'nikmalar so'rovnomasi natijalari shuni ko'rsatadiki, so'rovnomada ishtirok etgan korxonalarning 73 foizi o'z xodimlarini yarim kunlik o'qish orqali yangi ko'nikmalarni rivojlantirish uchun faol ravishda qo'llab-quvvatlamog'da va biznesning 84 foizi kelgusi yilga qadar xodimlarni o'qitishga investitsiyalarni oshirishga intilmoqda. Qizig'i shundaki, kompaniyalarning 78% ga yaqini allaqachon tashqi o'qitish va rivojlantirish shaklidan foydalanmoqda, 84% kompaniyalar o'z xodimlarini bevosita menejerlari bilan rivojlanish bo'yicha ochiq muhokama qilishga undaydilar. 78% o'z o'qitish va rivojlantirish budjetiga ega, 68% esa koaching va mentoring strategiyasidan foydalanadi <sup>[17]</sup>.

Bugungi kunda tashkilotlar o'z o'quv dasturlarini bozor muhitining hozirgi holati bilan bog'liqlikda tuzishlari taqozo etilmoqda. Xodimlarning sinchkovlik bilan tanlanganligi bu xodimlarning to'liq muvaffaqiyatli ishlab ketishini kafolatlamaydi. Buning sababi, xodimning ishlay olish salohiyati boshqa narsa, amalda bajara olishi boshqa narsa va shuning uchun yuqori salohiyatli xodim, o'qitish va rivojlantirish dasturlarida qatnashmasa o'z ishini mukammal bajara olmasligi mumkin. Shu sababdan yangi ishga kiruvchilarni o'qitish tashkiliy yo'nalishdan boshlanadi.

Bugungi kunga kelib, yirik, jamiyatga ta'sir ko'rsata oladigan kompaniyalar o'qitish dasturlarini yanada rivojlantirib, uning ko'lamini kompaniyasidan tashqariga qarata oshirib bormoqda. Misol uchun, IBM kompaniyasi ham inson kapitaliga xodimlarni o'qitish orqali investitsiya qiladi. 2019-yilda IBM o'zining SkillsBuild platformasini taqdim etgan bo'lib, SkillsBuild sun'iy intellekt texnologiyasidan foydalanib, boshlang'ich darajadagi ish qidirayotgan talabalar va kattalarga texnologiya sohasidagi yangi paydo bo'layotgan kasblarni egallash uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni beradi. Ushbu bepul dastur har xil qatlamdagi odamlarning inson kapitalini oshirishga yordam beradi. Bunga qochoqlar, faxriylar va eng kam ish haqi oladigan xodimlar ham kiradi. Ushbu tashabbus bilan IBM IT sohasida ishga joylashish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va bilimlarni shakllantirish uchun barchaga teng imkoniyatni taqdim etmoqda <sup>[18]</sup>.

Adobe kompaniyasining asosiy tamoyillaridan biri "Bizning odamlarimiz bizning eng muhim boyligimizdir", deb nomlanib, ularning Ta'lim fondi (Learning Fund) dasturi inson kapitaliga sarmoya kiritishning bir usuli hisoblanadi. Dastur xodimlarga o'qish imkoniyatlari va ilmiy darajalarni olish uchun yiliga 15 000 dollargacha mablag' ajratadi. Shuningdek, ular o'qitish va rivojlantirish imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlash uchun yiliga qariyb 1500 dollargacha pul to'laydilar. Bularga konferensiyalar, kitoblar, onlayn kurslar yoki veb-seminarlar kiradi <sup>[19]</sup>. Adobening xodimlarni o'qitish va rivojlantirish imkoniyatlari uni bugungi kunda ishlash uchun eng ko'p istalgan kompaniyalardan biriga aylantirgan.

Ushbu inson kapitali misollari alohida shaxslarning shaxsiy ko'nikma va qobiliyatlari kuchini ko'rsatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ilmiy adabiyotlarning nazariy tahlili shuni ko'rsatdiki, inson kapitali iqtisodiy qiymat yaratish salohiyati tufayli yuqori baholanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi xulosa va takliflar ishlab chiqildi:

Inson kapitali rivojlanish va innovatsiyalarning eng muhim omillaridan biridir. Xodimlarni o'qitish, ta'lim olish va farovonligiga sarmoya kiritish ularni o'zini baxtli his qilishiga va o'z ishini yaxshi ko'rishiga erishishga olib keladi.

Xodimlarni o'qitish va rivojlantirish orqali kompaniyalar inson kapitali ortib borar ekan, ularning bozordagi qiymati, raqobatbardoshligi, brendining qadri ham ortib boradi. Albatta, bu dasturlar katta xarajatni talab etadi. Shu sababdan, kompaniya HR mutaxassislari ushbu xarajatlarni o'zini oqlashi uchun samarali o'quv dasturlarini yaratishlari lozim bo'ladi.



Xodimlarni o'qitish va rivojlantirish faoliyati tizimli ravishda aniqlangan bilim va ko'nikma ehtiyojiga asoslanishi kerak, shunda u xodimning ham, tashkilotning ham sa'y-harakatlarini maksimal darajada oshiradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qalandar Abdurahmonov Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot / Darslik. Qalandar Abdurahmonov. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 3-nashri. T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "fAN" nashriyot davlat korxonasi, T.: 2019. B. 236
2. Armstrong, M. (2009) Armstrong's Handbook of Human Resource Management Practice. 11th Edition, Kogan Page Limited, London
3. Burund, S., & Tumolo, S. (2004). Leveraging the new human capital: Adaptive strategies, results achieved, and stories of transformation. Boston, USA: Nicolas Brealey America.
4. Stevens, R. H. (2010). Managing Human Capital: How to Use Knowledge Management to Transfer Knowledge in Today's Multi-Generational Workforce. International Business Research, 3, 77–83
5. Qalandar Abdurahmonov Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot / Darslik. Qalandar Abdurahmonov. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 3-nashri. T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "fAN" nashriyot davlat korxonasi, T.: 2019. B. 216
6. Rustamova D. D. Inson kapitaliga sarflangan investitsiyalar samaradorligini oshirish yo'llari/ Iqtisod va moliya. – Toshkent, 2015. – №1. – B. 73–79.
7. Kwon, D. B. (2009). Human capital and its measurement. In The 3rd OECD World Forum on 'Statistics, Knowledge and Policy' Charting Progress, Building Visions, Improving Life Busan, OECD World Forum, Korea, October. In October, 1–15.
8. Becker, G. S. (2002). The age of human capital. Education in the Twenty-First Century, 3–8.
9. Bildirici, M., Sunal, S., Aykac Alp, E., & Orcan, M. (2005). Determinants of Human Capital Theory, Growth and Brain Drain: An Econometric Analysis for 77 Countries. Applied Econometrics and International Development, 5, 109–140.
10. Han, T. S., Lin, C. Y. Y., & Chen, M. Y. C. (2008). Developing human capital indicators: a three-way approach. International Journal of Learning and Intellectual Capital, 5, 387.
11. Nerdrum, L., & Erikson, T. (2001). Intellectual capital: a human capital perspective. Journal of Intellectual Capital, 2(2), 127–135.
12. Smith, A. (1910). The wealth of nations. London: Dent and Dutton.
13. Benhabib, J., & Spiegel, M. (1994). The role of human capital in economic development Evidence from aggregate cross-c. Journal of Monetary Economics, 34, 143–173.
14. G. Abduraxmonova, I. Danaboyev. "Personalni rivojlantirish" fani bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Ma'ruza mashg'uloti uchun. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2016-yil, 289 bet
15. Anyanwu, U. (2002). Productivity and capacity building. Proceedings of the 9th Annual Conference of the Zonal Research Units, Gateway Hotel, Abeokuta, 12–16 June.
16. A. Aljarallah. The Importance Of Human Capital In Advancement Of Organisations. [https://www.linkedin.com/pulse/importance-human-capital-advancement-organisations-aljarallah-mba/?trk=articles\\_directory](https://www.linkedin.com/pulse/importance-human-capital-advancement-organisations-aljarallah-mba/?trk=articles_directory)
17. THE RIGHT COMBINATION CBI/PEARSON EDUCATION AND SKILLS SURVEY 2016. <https://epale.ec.europa.eu/sites/default/files/cbi-education-and-skills-survey2016.pdf>
18. Examples of human capital: driving growth and innovation. <https://www.betterup.com/blog/human-capital-examples>
19. Learning Fund of Adobe. <https://benefits.adobe.com/au/work-and-life/learning-fund>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtmoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2023. № 8**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

